

“Олий Таълим Муассасаларида Талаба Қизлар Тарбиясининг Долзарб Масалалари” Модулини Ўқишда Кейс-Стади Методининг Аҳамияти

Aziza Qosimova Sobitovna¹

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, uning amalga oshirilayotgan uchinchi bosqichida har tomonlama barkamol mutaxassislarni tayyorlashga aloxida e‘tibor berilgan. Bozor iqtisodiy sharoitida kadrlarni mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta‘limning asosiy sifat ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: talaba-qizlar, tarbiya, oila, muhit, ilm-fan, natija.

Keyslardan ta‘lim jarayonida foydalanish talabalarda quyidagi zaruriy sifatlarni shakllantiradi:

- kritik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- haqqoniy (ob‘ektiv) bo‘lishga o‘rgatadi;
- nazariya va amaliyot o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni shakllantiradi;
- muammoli vaziyatni yangicha shakllantirishga yordam beradi;
- vaziyatlarni hal etishda, unga ta‘sir etuvchi omillarning mavjudligi va ularning ta‘sirini e‘tiborga olishga imkon beradi;
- boshqalar fikrini ham qabul qila olish malakasini shakllantiradi;
- savol berish madaniyatini o‘rgatadi;
- qabul qilingan qaror uchun ma‘ullik hissini tarbiyalaydi.

Keyslardan foydalanishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: yakka tartibdagi taqdimot, mikroguruh taqdimoti, mikroguruhlarda va so‘ngra umumiy guruhda muhokama, rolli o‘yinlar.

Keyslarni hal qilishda quyidagilarga e‘tibor berish zarur:

- asosiy muammoni aniqlash;
- asosiy muammoga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash;
- asosiy va ikkinchi darajali omillarni ajratish;
- muammoni hal qilishning muqobil yechimini ham ko‘rib chiqish;
- eng maqbul (optimal) qaror qabul qilish.

Keyslarni hal qilishda uni yozma usulda tahlil qilish, unda bayon etilgan muammoni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi, yozma nutq ham mustaqil, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Metodik ishlanmada, kasb-hunar kollejlari pedagogik jarayonda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan va muayyan muammoni aks ettiruvchi ayrim keyslar tavsiya etiladi. Bu keyslarni tuzishda institut malaka oshirish fakulteti tinglovchilari va maxsus sirtqi bo‘lim talabalari (kasb-hunar kolleji pedagogik xodimlari) ning ayrim fikrlari ham e‘tiborga olindi. Ulardan pedagogik mahorat asoslari fani amaliy

¹ TDPU, O‘zbek tili va adabiyoti fakultetining Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari



mashg'ulotlarida talabalarning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish malakalarini rivojlantirish maqsadida foydalanish mumkin.

Case-study metodining g'oyalari.

Metod fanlar bo'yicha bilimlar olish uchun mo'ljallangan, ularda haqiqat plyuralistikdir, ya'ni qo'yilgan savolga bir ma'noli javob mavjud bo'lmay, bir necha javoblar bo'lib, ular bir-biri bilan haqiqat darajasi bo'yicha raqobatlashadi; o'qitish vazifasi bu holda ana'anaviy sxemadan chetlashadi va bir emas bir necha to'g'ri javoblarni olishdan va ularni muammo maydoniga mo'ljallashdan iborat bo'ladi.

O'qitish aktsenti tayyor bilimni egallashga emas balki uni ishlab chiqishga talaba va o'qituvchining hamkorligiga qaratilgan bo'ladi; case-study metodining ana'anaviy metodlardan printsiptial farqii shundaki – bilimlar olish jarayonida demokratiya mavjud bo'lib, bunda talaba boshqa talabalar va o'qituvchi bilan muammoni muhokama qilish jarayonida teng huquqlidir.

Metodni qo'llash natijasida nafaqat bilimlar, hatto kasbiy faoliyat malakalari olinadi.

Vaziyatni tahlil qilish metodining so'zsiz afzalligi, bu nafaqat bilimlar olish va amaliy malakalarni shakllantirish bo'libgina qolmay, u yana talabalarning qadriyatlar, kasbiy pozitsiyalar, hayotiy ko'rsatmalar, o'ziga xos kasbiy hayotni his etish va hayotni o'zgartirish tizimini rivojlantirishdir.

Case-study metodida materialni "quruq" hissiz bayon etish bilan bog'liq bo'lgan nuqson engib o'tiladi,– ushbu metodda emotsiyalar, ijodiy raqobat va kurash shunchalik ko'pki, yaxshi tashkil etilgan keysni muhokama qilish teatr spektaklini eslatadi.

"Case Study metodining vatani bo'lib Amerika Qo'shma Shtatlari, aniqrog'i – Garvard universitetining biznes Maktabi hisoblanadi". Birinchi bor u 1924 yilda qo'llanilgan. Keys metodining kelishi va rivojlanishiga asos bo'lib "pretsedent" yoki «voqea» printsipti bo'lgan. Ushbu metod chet elda iqtisod va biznes fanlarida keng qo'llaniladi.

Aniq vaziyatlar metodi (case-study metodi) o'yinli bo'lmagan imitatsion faol o'qitish metodlariga kiradi.

Case-study metodining maqsadi – guruh talabalarining birgalikdagi urinishlari bilan case-vaziyatni tahlil qilish hamda amaliy yechimni ishlab chiqish. Jarayonning tugashi – taklif etilgan algoritmlarni baholash va qo'yilgan muammo kontekstida eng yaxshisini tanlash.

Keyslardan ta'lim jarayonida foydalanish talabalarda quyidagi zaruriy sifatlarni shakllantiradi:

- nazariya va amaliyot o'rtasida uzviy bog'liqlikni shakllantiradi;
- kritik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- savol berish madaniyatini o'rgatadi;
- vaziyatlarni hal etishda, unga ta'sir etuvchi omillarning mavjudligi va ularning ta'sirini e'tiborga olishga imkon beradi;
- qabul qilingan qaror uchun ma'sullik hissini tarbiyalaydi;
- boshqalar fikrini ham qabul qila olish malakasini shakllantiradi;
- haqqoniy (ob'ektiv) bo'lishga o'rgatadi;
- muammoli vaziyatni yangicha shakllantirishga yordam beradi.

Darvoqe, Keys-stadi texnologiyasini Oliy ta'lim muassasalarida talaba qizlar tarbiyasining dolzarb masalalari mavzusidagi bitiruv ishiga moslashtirib mavzuning mohiyatini kengaytirildi.

Avvalo Keys-stadi texnologiyasini qo'llashdan avval qizlar tarbiyasiga oid millatimizga xos ma'naviy-ma'rifiy masalalar haqida so'z yuritish lozim.



Oliy ta'lim muassalalarida talaba qizlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, ularning bo'sht vaqtlarini unumli o'tkazishi uchun universitet va fakultetlararo "Qizlarjon klubi" ning ahamiyati beqiyos. Xususan, o'zim faoliyat olib borayotgan "O'zbek tili va adabiyoti" fakultetida ham "Qizlarjon klubi" faoliyati yo'lga qo'yilgan. Klubimizning asosiy maqsadlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish;
- talaba-qizlarning kiyinish madaniyati;
- ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish;
- kitobxonlik ko'rik-tanlovlarini tashkil etish va ularni keng targ'ib qilish;
- tashkil qilinayotgan ko'rik-tanlov hamda tadbirlarni qizlar o'rtasida keng targ'ib qilishdan iboratdir.

«Qizlarjon» klubining navbatdagi yig'ilishlarida qator vazifa va rejalar belgilab olinadi. Ayniqsa bu rejalarimizga xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilishga doir qonunchilik hujjatlari haqida ma'lumot berib boramiz. Klub yig'ilishlarida, shuningdek, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, yuksak ma'naviyat va milliy madaniyat targ'iboti, to'y va marosimlarni ixchamlashtirish, ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Klubdagi qator mavzular Keys-texnologiyasi asosida qizlar o'rtasidagi vaziyatlar muammoli vaziyatlar bosqichma bosqiy o'rtaga tashlanadi.

Jumladan:

1-Vaziyat.

Talaba qiz shartnoma pulini to'lash muddati o'tsa hamki universitet husobiga o'tkaza olmadi. Bu paytda oilada iqtisodiy yetishmovchilik yuzaga kelgan. Oqibatida qiz turmush o'rtog'idan erta beva qolgan onasi bilan tortishib qoldi. Qiz onaga yuqori ovozda baqirib, shartnoma pulini to'lashini aytib do'q qildi. Bu vaziyat qanday yechiladi?

Keys bo'yicha o'rtada tashlangan muammo auditoriyada quydagicha yechiladi:

2.3.1-jadval.



Jadvalda berilgani Klub a'zolari ikki guruhga bo'linib, bosqichma-bosqich tayyrlanishadi.

Birinchi bosqichda qizlar o'z fikrlarini ijodiy javob berishlari uchun quyidagi savollar beriladi:



1. Vaziyatdagi talaba-qizning o'rnida siz qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?
2. Qizning onasiga nisbatan behurmatsizligini qanday baholaysiz?
3. Onaga nisbatan baland ovozda gapirish, qo'pol muomilada bo'lish yaxshimi?
4. Fikrlaringizni hikmatlar, rivoyatlar bilan izohlang.

Qisman ijodiy metodka klub a'zolari vaziyatga yaqin suratlar chizishadi. Rasmlarda onaning mayuz nigohi, qizning qo'pol va bashing yuzi ifoda qilingan bo'lishi kerak.

Materialni muammoli bayon qilishda esa Oq va Qora guruhlariga bo'linib birinchi guruh ayolni qo'llasa, ikkinchi guruh qizni qoralaydi.

Guruhda ayolning qo'li kaltaligi, turmush o'rtog'idan ayrilib qolib, ro'zg'or aravasini yolg'iz sudrayotgani aytilsa, qizning ham universitetga kirgani va o'qishini tashlab ketish u uchun og'irligi, agar o'qimasa onasiga o'xshab ro'zg'orda qiynalib qolishi, kelajakda yetuk kadr bo'lishi uchun ham ta'lim olishi kerak degan xulosalar beriladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Бегматов Э., Мадвалиев А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – III жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 606 б.
2. Шкерина Л.В. Профессионально-ориентированная учебно-познавательная деятельность студентов в процессе математической подготовки в педвузе: дис. ...докт. пед. наук. – Красноярск, 1999. – 332 с.
3. Акрамов А.А. Шахса йўналтирилган таълим технологиялари асосида бўлажак ўқитувчиларда фуқаролик позитсиясини ривожлантиришнинг ташкилий-методик асосларини такомиллаштириш: пед. фан. докт. ...дис. – Тошкент, 2016. – 279 б.
4. Борытко Н.М. Теория и практика становления профессиональной позиции педагога-воспитателя в системе непрерывного образования: автореф. ...докт. пед. наук. – Москва, 2001.
5. Ж.О.Толипова, А.Т.Ғофуров Биология таълими технологиялари. Методик кўлланма «Ўқитувчи», Тошкент. 2002й

